



FESTIVAL

“MAHALLA YOSHLARI” FESTIVALIGA START BERILDI

Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida milliy xalq o'yinlari hamda sport turlarini ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, festivallar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Respublika ishchi guruhi tashkil etildi. Mazkur guruh faoliyatiga Sirdaryo tumanida start berildi.



MUNOSABAT

HARAKATLAR STRATEGIYASI VA TARAQQIYOT STRATEGIYASI: FARQLI JIHATLARI NIMADA?

Bundan besh yil muqaddam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoyishi qabul qilindi.

Shunga muvofiq ravishda 2017-2021-yillarda mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqning osoyishta va

farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Davomi 2-sahifada.

Ekspert tahlili:

“2021-YILNING 1-OKTABR HOLATI BO'YICHA ISHSIZLIK DARAJASI 9,4 FOIZGACHA PASAYISHI KUZATILDI”

Ma'lumki, har bir davlatda ishsizlik muammosi mavjud. Aynan shu muammoning yechimi yo'lida davlat dasturlari ishlab chiqiladi.

O'zbekiston ham bunday muammodan xoli emas. Biroq keyingi paytlarda mamlakatimizda ko'rilayotgan chora-tadbirlar ishsizlikni kamaytirishga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

2018-yildan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi amaliyotga tatbiq etilishi hududlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rinlari yaratish, bandlikka ko'maklashishda muhim qadam bo'ldi.

Davomi 2-sahifada.

НАСЛЕДИЕ

В БЕЗБРЕЖНОМ ОКЕАНЕ ТВОРЧЕСТВА



Чтобы вспомнить об Алишере Навои, не нужно ждать юбилейных дат. Он всегда рядом. Это дорогое для ценителей классической литературы

имя известно далеко за пределами родной страны поэта, ученого, музыканта и покровителя людей искусства, борца за справедливость. Наследие гуманиста не устаревает со временем и будет изучаться долгие годы, сверкая новыми гранями. Образец беззаветного служения народу побуждает вновь и вновь обращаться к доброму творчеству, которое облагораживает человека, устанавливает моральные принципы его жизнедеятельности.

Каждый по-своему приходит к Навои, следует его заветам, делится находками с другими. Сегодня, 9 февраля, в день рождения Султана поэтов, о феномене Восточного Ренессанса говорит преподаватель кафедры иностранных языков Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои Умедулло МАХМУДОВ.

(Окончание на 6-7-й стр.)



HARAKATLAR STRATEGIYASI VA TARAQQIYOT STRATEGIYASI: FARQLI JIHATLARI NIMADA?

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Kuni kecha esa Harakatlar strategiya-sining uzviy davomi o'laroq, O'zbekistonning kelajagi bilan bevosita bog'liq bo'lgan eng muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”-gi farmoni qabul qilindi. Bu bilan kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi.

Mazkur hujjat O'zbekistonning taraqqiyotiga, ravnaqiga bafarq bo'lmagan barcha odamlarga qiziqish uyg'otmoqda, bu borada ko'plab fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Shu o'rinda fuqarolarimiz orasida “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi besh yil avval qabul qilingan Harakatlar strategiyasidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?” kabi savollar ham tug'ilmoqda. Bu, tabiiy hol, albatta. Ko'pchilikni qiziqtirayotgan mazkur savolga baholiqudrat javob berishni lozim topdik.

Avvalo, Harakatlar strategiyasidan farqli o'laroq, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan 398 ta chora-tadbirni o'z ichiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshiriladigan sa'y-harakatlar ham aniq. Ular, o'z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etilmoqda.

Ikkinchidan, Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta'minlandi. Bunga, xususan, faqatgina uchta asosiy elektron platformaga jamoatchilik muhokamalarini yakuni bo'yicha kelib tushgan 17 mingdan ziyod fikr-mulohazalar yaqqol dalil bo'la oladi. Bunda besh yil avval Harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan xalq bilan muloqot tizimi muhim rol o'ynaganini alohida e'tirof etish joiz. Chunki, aynan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida davlat organlarining aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqoti yo'lga qo'yildi, yildan yilga shaffoflik ortib bordi. Bu esa o'z-o'zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini tubdan o'zgartirdi, uning faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligini kuchaytirdi. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo'yish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Uchinchidan, ushbu dasturiy hujjatda yaqin va o'rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo'lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo'lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta'minlangani holda davom etiriladi, to'plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat'iylik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsienti ortib, olib boriladigan islohotlarning samaradorligi ortadi.

To'rtinchidan, Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo'yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat

Mirziyoyevning “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas'ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan. Komissiya a'zolari Taraqqiyot strategiyasining bevosita amalga oshirilishi va tegishli mutassaddilar ustidan bu borada nazoratning ta'minlanishiga mas'ul etib belgilangan.

Shu o'rinda tegishli bandlarning aniq ijrochisi va uning ustidan nazorat qiluvchisi belgilanishi bilan bir qatorda, sarf-xarajalar uchun rejalashtirilgan mablag'larning aniqligiga ham e'tibor qaratish lozim. Bu, bir tomondan, rejadagi ishlarning samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, tegishli mutassaddilar mas'uliyatining ham o'tishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalardan so'zlashganda, rejalashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo, ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan, aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining xalq vakillari – deputatlar oldidagi hisobdorligi ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Eng muhimi, har bir maqsadning amalga oshirilish jarayoni aholi tomonidan doimiy ravishda kuzatib borilishini ta'minlash maqsadida elektron platformalar ishga tushiriladi va muntazam takomillashtirib boriladi.

Oltinchidan, Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning ilk yili – 2022-yilda amalga oshirilishi belgilab olingan vazifalarga ajratilayotgan mablag'lar miqdorining ham bir necha barobar ortganligini ko'rish mumkin. Xususan, Taraqqiyot strategiyasini joriy yilda amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturida umumiy qiymati 55 trillion so'm va 11,7 milliard dollarlik 398 ta chora-tadbir ko'zda tutilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Vaholanki, 2021-yilda belgilangan davlat dasturini bajarish uchun 29 trillion 492,7 milliard so'm va 2 milliard 600,4 million AQSh dollari, 2020-yildagi davlat dasturini bajarish uchun esa 18 trillion 171,4 milliard so'm va 10 milliard 301,5 million AQSh dollari ajratilgan edi.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki, Taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarni to'laqonli amalga oshirishda barchamizdan mustahkam iroda va qat'iy intizom, bor imkoniyatlarni to'la safarbar qilish talab etiladi. Albatta, bunda har birimiz faol bo'lishimiz, bir kuch, bir qudrat bo'lib Yangi O'zbekistonni barpo etishda o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “...hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz. Hammamiz bir kuch, bir qudrat bo'lib xalqimizga xizmat qilishimiz kerak”.

Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi” markazi
ijrochi direktori

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Raqamlar tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2018-2021-yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida qariyb bir million oilaga 23,7 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan. Birgina 2021-yilning 11 oyida ushbu dastur doirasida 332,6 ming kishi va tadbirkorlik sub'ektlariga 8 trillion so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar berilgan.

O'z-o'zidan savol tug'iladi: mamlakatimizda ishsizlik darajasi osh-yaptimi yoki pasayish kuzatilyaptimi?

Ushbu savol bilan biz Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining direktor o'rinbosari Zamon XALDAROVga murojaat qildik.

Ekspert tahlili:

“2021-YILNING 1-OKTABR HOLATI BO'YICHA ISHSIZLIK DARAJASI 9,4 FOIZGACHA PASAYISHI KUZATILDI”

– Davlatlarning iqtisodiy rivojlan-ganlik darajasidan qat'i nazar, ular-ning asosiy vazifalaridan biri – mam-lakatda ishsizlikni kamaytirish va aholining barcha qatlamlari uchun turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan ijtimo-iqtisodiy siyosat yuritish orqali uzoq muddatli inklyu-ziv rivojlanishni ta'minlashdir, – dedi Z.Xaldarov. – Bu borada turli dav-latlarda amalga oshirilayotgan cho-ra-tadbirlar bir-biridan farqli bo'lgan-ligi bois iqtisodchilar, siyosatchilar va ekspertlar orasida ularning qan-chalik samarali ekanligi qizg'in bahs va munozaralarga sabab bo'ladi.

Mamlakatimizda bu borada tizim-li ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomoni-dan aholi o'rtasida tadbirkorlikni rivojlan-tirishga qaratilgan islohotlar, xususan, qator dasturlar ijrosi ush-bu masalada amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Quyidagi raqamlarda yurtimiz bo'yicha ishsizlik darajasining pasayganini ko'rish mumkin: 2020-yil yakunida ishsizlik darajasi 2019-yil yakunidagi 9 foizdan 10,5 foizga-cha oshgan bo'lsa, 2021-yilning 1-oktabr holatiga 9,4 foizgacha pasayishi kuzatildi.

– Bozor iqtisodiyoti sharoiti-da kambag'allikni qisqartirish va ish o'rinlari yaratishda moliyaviy imtiyozlar berish xalqaro tajriba tahlilida qanday baholalanadi?

– Ayniqsa, liberal iqtisodchilar tomonidan bozor iqtisodiyoti sha-roitida kambag'allikni qisqartirish va ish o'rinlari yaratish uchun moliyaviy imtiyozlar berilishi kerakmi, bu imti-yozlar adolat tamoyillariga zid kel-maydimi, iqtisodiyotda davlat aralashuvi qay darajada, qaysi tarmoq va sohalarida bo'lishi kerak, degan savollar berilishi tabiiy hol.

Umuman olganda, rivojlanayot-gan xorijiy mamlakatlar tajriba-si tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat tomonidan aholining yordamga muhtoj va ehtiyojmand qatlamiga ajratilayotgan maqsadli moliyaviy mablag'lar to'g'ri va adolatli yo'nal-tirilgan holatlarda aholining bandli-gini ta'minlash, turmush darajasi va farovonligini oshirish hamda tadbir-korlik imkoniyatlarini kengaytirishda o'zining ijobiy natijalarini bergan.

Xalqaro tajribaga ko'ra, ush-bu imtiyoz va moliyaviy ko'maklar boshqa ijtimo-iqtisodiy islohotlar bilan birga parallel ravishda amalga oshirilganda yaxshi samara berishi kuzatilgan.

– Yuqorida ta'kidlanganidek, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir etadi?

– Har bir davlat uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'min-lash uchun u yoki bu yo'l bilan mam-

lakatda ehtiyojmand aholi qatlamini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularni o'rta daromadli qatlamga olib chiqishga majbur bo'ladi. Bu bora-da O'zbekistonda davlat tomonidan aholiga to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy xiz-matlar ko'rsatish bilan birga, ular-ning daromad topish imkoniyatlar-i oshirish uchun imtiyozli kreditlar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi joriy etilgan.

Xususan, so'nggi yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari ko'lami ken-gayib borayotganiga qaramay, ti-jorat banklari tomonidan imtiyoz-li asosda ajratilayotgan kreditlar ulushi 2018-yildagi 49 foizdan 2021-yil dekabr holatiga 25,5 foizgacha pasayishi kuzatildi. Dastlabki yil-larda kreditlar to'liq davlat resurs-lari hisobidan amalga oshirilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib dasturlarni moliyalashtirishda avval ajratilgan kreditlarning qaytgan qismi qariyb 60 foizga yetdi.

Bu, o'z navbatida, dastlabki yil-larda ushbu dasturlarga qatnash-gan aholining doimiy daromadga ega bo'lishi va o'z tadbirkorlik faoli-yatini yo'lga qo'yishi hisobiga daro-madlari oshganligi va an'anaviy moliyaviy xizmatlardan foydalanish sektoriga o'tayotganligi bilan izohla-nishi mumkin.

– Oilaviy tadbirkorlik dastur-larini amalga oshirishda asosiy e'tibor ishlab chiqarishni rag'bat-lantirish orqali ichki bozorda mahsulotlar taklifi oshirishga qaratilmoqda. Buning samara-dorligini qanday izohlaysiz?

– O'z navbatida, oilaviy tadbir-korlik dasturlari orqali tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi mam-lakatda asosiy iste'mol tovarlari taklifining o'tishiga hissa qo'shib, narxlar barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoq-da.

Birgina misol, 2018-2020-yillarda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida aholi xonadonlari va bo'sh turgan yerlarda tashkil etilgan issiqxonalar, ma'lum ma'noda ichki bozorda qish-loq xo'jaligi mahsulotlari taklifi va narxlari mavsumiy tebranishlarining oldini olish imkonini berdi.

Dasturlar doirasida amalga oshi-rilayotgan kompleks chora-tadbirlar mamlakatda ishsizlik darajasini qis-qartirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsat-moqda. Xususan, pandemiya davri-da aholining turli dasturlar orqali qo'llab-quvvatlanishi ishsizlik ortib ketishining oldini olishga hamda 2021-yil 1-oktabr holatiga pandemi-yadan avvalgi darajagacha pasa-yishiga xizmat qilganini ta'kidlash o'rindidir.

O'ZA muxbiri
Nasiba ZIYODULLAYEVA
suhbatlashdi.

IQTIDORLAR BILAN TIZIMLI ISHLASH MEXANIZMI SHAKLLANMOQDA

Yaqinda jamoamizga Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridan IELTS'dan 8,5 ball olgan 16 yoshli Zulfiya Ktaybekova ismli singlimiz imtihon xarajati kompensatsiyasini olish uchun ariza topshirgani haqida ma'lumot kelib tushdi.

Ochig'i, ko'rib hayron qoldim. 16 yoshli maktab o'quvchisi uchun bu juda katta natija. Kecha Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat safarida ekanligimizdan foydalanib, Zulfiya singlimizga kompensatsiya uchun sertifikatini shaxsan topshirib, unga va mana shu natijaga erishishda asosiy sababchi insonlar — ota-onasiga minnatdorchiligimizni bildirdik.

Zulfiya Ktaybekova Prezident maktabida tahsil oladi.

Uning dadasi Laziz aka Qoraqalpog' davlat universitetining fizika fakultetida dotsent bo'lib ishlaydi, onasi esa Nukus shahridagi 24-maktabda ishlaydi. Zulfiyaning akasi "Yangi O'zbekiston" universitetida tahsil oladi. Ko'rinib turibdiki, ziyolilar oilasi va unga munosib farzandlar.

Yaqinda Prezident maktabi o'quvchisi Maqsadbek Fayzullayev 17 yoshida TOP-300 talikka kiradigan 11 ta xorijiy universitetga o'qishga qabul qilinib, umumiy hisobda 312



ming dollar grant yutgani haqida yozgandim. Prezident maktablari tizimiga ham yoshlari-mizning mana shunday natijalari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Nazarimda, iqtidor-

lar bilan tizimli ishlash mexanizmi shakllanmoqda.

Zulfiya singlimizning bu yutug'i birinchi o'rinda oilada ota-onaning farzandlariga bo'lgan e'tibori, oilaning farzand-

larga bo'lgan ishonchi qanchalik kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu qizimiz kelajakda dunyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida biologiya yo'nalishi bo'yicha tahsil olmoqchi. Zulfiyaning ilm olish yo'lidagi harakatlariga kuch-quvvat va muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Eslatib o'taman, 2021-yildan xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlarini qoplab berish tizimini yo'lga qo'yganmiz. Shu yil 20-yanvar holatiga ko'ra, ushbu tizim orqali 3 246 nafar yoshlarning xarajati qoplab berildi. Bu qariyb 6 000 000 000 so'mni tashkil etmoqda.

Alisher SA'DULLAYEV,
Yoshlar ishlari agentligi
direktori

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

“MAHALLA YOSHLARI” FESTIVALIGA START BERILDI

Guruh a'zolari mahallalardagi yoshlar yetakchilari faoliyatiga ko'maklashish, yoshlar bilan ishlashda mas'ul tashkilotlar vazifalarini rejali amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni muhokama qildi. Bu ishlarni namunali tashkil etish hamda o'tkazish uchun tumandagi eng olis — “Hikmatli” mahallasi tanlab olindi.

**“XALQ VA ARMIYA
BIR TAN-U BIR
JONDIR”**

Ilk marotaba o'tkazilgan “Mahalla yoshlari” festivalida yoshlar yetakchilari, Toshkent harbiy okrugi MOQB, Sirdaryo viloyati IIB xodimlari, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi harbiy xizmatchilaridan tarkib topgan bo'linmalar, Mudofaa vazirligi markaziy harbiy orkestrining mahalla ko'chalari bo'ylab tantanali yurishi namoyish etildi.

Tadbir davomida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev so'zga chiqib, mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining ashula va raqs ansambli jamoasi tomonidan “Xalq va armiya bir tan-u bir jondir” shiori ostida konsert dasturi namoyish qilindi. Tadbir sportchilarning ko'rgazmali chiqishlari bilan davom etdi.

Mahalla yoshlari bilan harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi bo'yicha mahorat darslari ham o'tkazildi. 30-umumta'lim maktabi sinfxonalarida PPXB, YHXB, Tergov, EKB, JQB, TQB, HPB mas'ullari tomonidan yoshlarni ichki ishlar organlari faoliyati bilan



batafsil tanishtirish maqsadida mashg'ulotlar tashkil qilindi. Maktab kutubxonasiga 200 dona badiiy kitob sovg'a qilindi.

Tadbir doirasida Hikmatli mahallasi yoshlar yetakchisi Tursunqul Hu-

sanov Sirdaryo viloyati “Kelajak liderlari” klubi a'zolariga qabul qilindi. Klub rahbariyati Tursunqul Husanovga “Kelajak liderlari” ko'krak nishonini topshirdi.

GULXAN ATROFIDA

Uch kun davom etgan festival mahalla yoshlaridan iborat 13 ta jamoaning “Zakovat” intellektual o'yinida munosib bahs olib borishi, tadbirning ko'pkari musobaqalariga ulanib ketishi, konsert dasturlari “Hikmatli” mahallasi yoshlari xotirasida unutilmas onlar sifatida saqlanib qolishi shubhasiz.

Mazkur loyiha san'at-sevar, she'riyat hamda adabiyotga qiziquvchi o'g'il-qizlarni tom ma'no-

da birlashtira oldi, deyish mumkin.

Sirdaryo tumanida boshlangan festival Guliston tumanida davom etmoqda. Gap shundaki, tumanda “Yangi O'zbekiston yoshlari — kelajak bunyodkorlari” shiori ostida yoshlar festivaliga start berildi.

Festival uchun Beshbuloq mahallasi tanlab

olinib, uning doirasidagi tadbir haqiqiy bayramga aylanib ketdi. Tadbirning rasmiy ochilishi konsert dasturi bilan boshlanib, unda xonandalar, baxshi hamda folklor jamoalarining chiqishlari ishtirokchilarga o'zgacha kayfiyat ulashdi.

Tumanning Beshbuloq mahallasida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida “Sog'liq uchun 5000 qadam” loyihasi joriy etildi. Shuningdek, o'g'il-qizlarni kitobxonlikka keng jalb qilish maqsadida festival doirasida mahallada “Yosh kitobxon” ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Tadbirlarda gulxan atrofida jam bo'lgan yoshlar, jonli ijrodagi kuy-qo'shiqlar, she'rlar, monologlar ijro etishib, o'z iste'dodlarini namoyon etishdi.

Kun davomida Beshbuloq mahallasida o'tkazilgan festivalda faollik ko'rsatgan yoshlar hamda sport musobaqalari g'oliblari tuman sektor rahbarlari tomonidan taqdirlandi.

Iqbol PARDAYEVA



“DAFTAR”LAR NIMA BERMOQDA?

ODDIY ODAMLARGA

Hayot bor ekan, muammo degani chiqaveradi. Keyingi yillarda mamlakatimizda odamlar dardiga quloq tutish, ularni o'ylantirayotgan muammolarni aniqlash, o'rganish va tahlil etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev tomonidan odamlarni rozi qilish, inson qadrini ustuvor bilish borasida amalga oshirilayotgan xalqparvar siyosat zaminida ham mavjud muammolardan ko'z yummaslik, ularni boricha tan olish, hal etish masalasi jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda joriy etilgan “Ayollar”, “Yoshlar”, “Temir daftar”lari muammolar ildizini to'g'ri aniqlash, ularni hal etishda o'ziga xos yondashuv bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi.

Xususan, koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko'makka muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga doir tizimli ishlar bajarilmoqda. Bu yo'nalishda har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi – “Temir daftar”, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiroqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli “Ayollar daftar”i va “Yoshlar daftar”i tizimlari hayotga tatbiq etilayapti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi “Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjat ko'ra, ijtimoiy yordamga muhtoj va ilguruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud oilalar, kam ta'minlangan yakkalarga yolg'izlar va keksalar, boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar, ko'p bolali moddiy ko'makka muhtoj oilalar, mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar, tibbiy yordamga muhtoj ehtiyojmand oilalar, noturur joylarda istiqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan ehtiyojmand oilalar kirishi ko'zda tutilgan. Ush-

bu daftarga kiritilgan oilalarga bandlikni ta'minlash, tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashish, tadbirkorlikka jalb qilish, moddiy yordam hamda tibbiy xizmat ko'rsatish kabi yordamlar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, mazkur daftar joriy etilganidan buyon 614,9 ming oila “Temir daftar”ga kiritilgan bo'lib, ushbu oilalarning 2 million 600 ming fuqarosi qamrab olingan.

Shu bilan birga, 684 mingdan ziyod oilaning mehnatga layoqatli vakillarining bandligini ta'minlashga erishildi. Olib borilgan ishlar natijasida 586,6 ming oila “Temir daftar”lar tarkibidan chiqarildi.

Hozirda 28 mingdan ortiq oila mazkur daftar tarkibida qolgan. Bular asosan, iqtisodiy faol bo'lmagan aholi, ya'ni nogironlar, farzand tarbiyasi bilan band ayollar, boquvchisini yo'qotganlar, yakka-yolg'iz qariyalari hisoblanadi.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan amaliyotga tatbiq etilgan va dunyoda analogi bo'lmagan “Ayollar daftar” bilan ishlash tizimi orqali ko'plab xotin-qizlarning muammolari hal etilib, amaliy yordamlar ko'rsatildi. O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan 2021-yil davomida “Ayollar daftar”ning 1- va 2-bosqichi doirasida 900 mingga yaqin xotin-qizga amaliy yordamlar ko'rsatilib, turmushi sifati va darajasini oshirish ishlari olib borildi. 2022-yilning yanvar oyidan boshlab esa “Ayollar daftar”ning 3-bosqichi boshlanib, bugungi kunda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etish zarurki, 1 yillik tajribadan, kelib chiqqan holda “Ayollar daftar” orqali xotin-qizlarga amaliy yordam berish tartibi takomillashtirilib, bugungi kungacha Respublikamizning barcha hududlarida 30 yoshdan oshgan xotin-qizlarni ro'yxatga olish xatlov ishlari nihoyasiga yetkazildi. Yana bir yangilik, “Ayollar daftar”ga kiritilgan xotin-qizlarning toifalariga o'zgartirish kiritildi. Natijada endilikda ehtiyojmand xotin-qizlar 6 ta toifa yo'nalishida aniqlanadi.

Yana bir o'zgarish shundan iboratki, “Ayollar daftar”ga kiritiladigan xotin-qizlarga amaliy yordam berish ishlari monitoring qilib borish maqsadida “Individual anketalar”ni yuritish tartibi kuchaytiriladi. Xususan, Individual anketalarda har bir

xotin-qizning barcha ma'lumotlari va qaysi toifaga kiritilganligi hamda unga kim, qachon va qanday yordam berishi aniq yoziladi.

E'tiborga molik jihat, “Ayollar daftar”ning 3-bosqichini o'z vaqtida va yuqori saviyada o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, eng avvalo, barcha tuman va shaharlardagi mahallalarda xonadonma-xonadon yurib, anketasov'nomalarni o'tkazish orqali xotin-qizlar muammolari o'rganildi. Buning uchun, 1- va 2-bosqichda bo'lgani kabi 9 277 ta mahallaning har birida bittadan ishchi guruhi ish olib bormoqda. Eng muhimi o'rganishlar jarayonida birorta ham ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qiz e'tibordan chetda qolmadi.

Yoshlar ishlari agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2021-yil boshida tegishli idora va tashkilotlar, mutasaddi vazirliklar va hokimliklar bilan hamkorlikda mahallabay shakllantirilgan “Yoshlar balansi” asosida 621 ming 709 nafar yoshlar “Yoshlar daftar”ga kiritildi.

Kasb-hunar o'rgatish, imtiyozli kreditlar, yer maydonlari, subsidiyalarni ajratish va ijtimoiy-moddiy qo'llab-quvvatlash natijasida 595 ming 970 nafar yoshlar bandligi ta'minlandi va 25 ming 739 nafar imkoniyat cheklangan, tibbiy yordamga muhtoj yoshlar doimiy nazoratga olindi.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tuman (shahar)larda moliyaviy manbalari aniq belgilangan “Yoshlar daftar” jamg'armalari tashkil etilib, mahalliy byudjetning o'ttirilgan qismi va ijro hujjatlariga oid undiruvlar hisobidan 382,8 mlrd. so'm mablag' shakllantirildi. Jamg'armalar hisobidan ishsiz yoshlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari, urug'lik va ko'chat xarid qilish uchun subsidiyalarni ajratish, noturur joylar ijarasi va boshqa yo'nalishlarda 137 ming nafar yoshlarga 290 mlrd. so'm miqdorda amaliy yordam ko'rsatildi.

Xo'sh, “Temir”, “Ayollar”, “Yoshlar” daftarlariga oid bunday kuchli ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar oddiy odamlarga nima berdi?

Eng avvalo, odamlar hayotiga oid ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, kerak bo'lsa ma'naviy muammolar boricha e'tirof etilmoqda. Nainki, MDH davlatlari, balki jahonning boshqa davlatlarida ham uchramaydigan bu ijtimoiy loyiha kambag'allikni qisqartirish sari dadil qadam, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

**Nazokat USMONOVA,
O'za muxbiri**



KELAJAKKA ELTUVCHI KALIT – O'ZINGIZSIZ!

Inson hayotda kutganlaridan ko'ra, kutmaganlariga ko'proq duch kelar ekan. Xayolning bir burchagida yashamagan orzular, hayotning ichida, uning mazmuniga aylanib borishi hatto tushimga ham kirmagandi.

Bir vaqtlar o'zini o'zi boshqara olmaydigan kishi, endilikda nafaqat o'zini, balki tengdoshlarini ham boshqara oladi. Sahnaga chiqib “bir og'iz” so'zni gapirishga qo'rqadigan (uyaladigan) qizaloq hozir bundan cho'chimaydi. Sababi uni yaqinlari, “keraksiz” deb bilgan tashkiloti tarbiyaladi.

Yoshlar ittifoqi – minglab yoshlarning mamlakatimiz rivojlanish yo'lida o'z o'rnini topishga ko'maklashuvchi tashkilot. Tashkilot yoshlarning erkin fikrlash qobiliyatini namoyon qilishi uchun tajriba maktabi bo'lyapti. Shubhasiz, men ham bu maktabda yuksak bilim-ma'rifat, tajriba va do'st orttirishdek baxtga sazovor bo'lyapman. Yoshlar mamlakatimizning ertangi kuni, ishonchi, rivojlanishga qadam qo'yayotgan yutimimizning poydevori hisoblanadi. Yoshlar ittifoqi esa mamlakatimiz va yoshlar o'rtasidagi tayanch o'priq vazifasini o'taydi.

Kelajagingizga eltuvchi asosiy kalit — o'zingiz. Buni hech qachon unut-mang. O'zingizni kashf etmas ekansiz, harakatlaringiz samarasiz yakunlanadi.

Har bir sardorning birinchi tajribasi uning maktabi bo'ladi. Sardorlarning faoliyatini nazorat qilish Boshlang'ich tashkilot yetakchisiga bog'liq. Yetakchimiz opam bo'lgani balki bu mening yutug'imdir.

Qo'lga kiritilgan har bir g'alabaning zaminida bir kishining ter to'kib, qilgan mehnatlari yotadi. Mehnatlaringiz samarasini “Sahna” tomondan yangrayotgan ism-sharifingizni eshitganingizda, yuragingizni vahima bosib, ko'z o'ngingizda qilgan mehnatlaringiz gavdalan-ganida his qilay ekansiz.

Yaqinlarimning boriga shukr! Agar ular meni tinglamaganida, qiyin damlarda qo'llab-quvvatlamaganida hozirgi ko'rinishdagi “Xolida” bo'lolmas edi.

Suyanchiqlarimdan biri — opam. Opamni ta'riflaganimda shu satrlarni o'qigim keladi: “Xudoyim bunday opani bir marta yaratgan-u, qolipini sindirib tashlagan”.

Haqiqatan ham, opamdagi xislatlarni tengdoshlarimning opasi yoki atrofda-gilarda uchratish qiyin. Uning dunyosida

men qadrlaydigan xislatlar juda ko'p. Masalan, o'ziga xos shijoat, ishonch, xohish va mas'uliyat. Aynan shu fazilatlarini menga o'rgatishga harakat qiladi. Balki shu orqali meni ruhlantira olgandir.

Faoliyatim davomida yana bir ustozim, opajonim — Nargiza Xolbayeva bo'ladi. Ustozimning fe'l-atvori, qarorlaridagi qat'iyat men uchun namuna. Tajribali sardorlar safida tarbiyalangani uchun u kishiga doim rahmat aytaman.

Esimda... “Yil sardori” ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi o'tkazilayotgandi. Buni qarangki, qura tashlash vaqtida men “1” raqamini tanlagandim. O'rta shartdan iborat tanlovning har bir shartini o'zim boshlab berardim. Bu holat hayajonli bo'lsa-da, vaziyatdan yaxshi chiqib ketishga harakat qilardim. Tanlov so'ngida Yangiyer shahridan tashrif buyurgan g'oliblikka da'vogar ishtirokchi bilan to'plagan ballarimiz teng bo'lib qoldi. Hakamlar hay'ati a'zolari g'olibni aniqlash maqsadida ikkovimizga savollar bilan murojaat qilishdi. 1-savolga ikkimiz ham javob bera olmadik, 2-savolga kim birinchi bo'lib javob bersa, o'sha ishtirokchi g'olib deb topishi ma'lum qilindi. “Hamamizga ma'lum va mashhur “Jannati odamlar” asarining muallifi kim?” degan savol berildi. Qo'limni ko'tarib, hayajonli ohangda “Xudoyberdi To'xatboyev!” deya aytib yubordim. Tomoshabinlar tomondan qarsaklar sadosi qulog'imga chalinishi bilan, ko'zlarimdan beixtiyor yosh chiqib ketgandi.

Shu tariqa “Yil sardori” ko'rik-tanlovi sababli Yoshlar ittifoqining viloyat a'zosi sifatida jamoaga qabul qilindim.

Yaxshi niyat qilgan inson albatta orzulariga yetisharkan. Hozirgi kunda Ittifoqning viloyat kengashi qoshidagi Sardorlar kengashi “Ittifoq” sardorim. Bu yuksak mas'uliyat zimnamga yuklatilganidan mamnunman. Tashkilotimni yaxshi ko'raman. Uning har bir a'zosi qadrlayman. Chunki ular mening oilam.

**Xolida G'AYBULLAYEVA,
Sirdaryo viloyati “Ittifoq” sardori**

РУБИЛ
ОДНО ДЕРЕВО -

ПОСАДИ ДЕСЯТЬ

Экологическая обстановка в республике, сбор и утилизация отходов, реализация общенационального проекта «Яшил макон» — эти вопросы стали темой обсуждения на видеоселекторном совещании под председательством Президента Шавката Мирзиёева

В начале совещания глава государства выступил с обращением к общественности: «С юных лет родители учили нас сохранять в чистоте двор, окружающую среду. Наш народ издревле бережливо относился к почве, воде, природе. Неспроста бытует пословица «Срубил одно дерево — посади десять». Посадивший дерево человек считался благословенным. Когда рождался ребенок в семье, в его честь сажали дерево».

«Посмотрите сегодня на улицы и любое другое место. Повсюду видите выброшенные отходы. Наша священная страна, говорим мы. Почему же тогда не содержим ее в чистоте? Ведь и в наших священных книгах говорится: «Чистота — половина веры», — подчеркнул Шавкат Мирзиёев.

Президент также отметил, что необходимо воспитывать у молодого поколения любовь к природе: «Нам следует сформировать такую среду, когда в махалле, на улице бросившему мусор указывают на неправильность его поступка. Это — наше общее дело и человеческий долг».

ТЕКУЩАЯ СИТУАЦИЯ

На совещании обсуждены актуальные вопросы сферы.

Согласно анализу, почти во всех странах количество твердых бытовых отходов на душу населения растет на 1 процент в год. За счет социально-экономического роста в Узбекистане накопление отходов увеличивается на 2 процента в год, годовой объем достиг 7 миллионов тонн.

Положение дел в системе их сбора, сортировки, переработки и утилизации неудовлетворительное, отметил Президент. Например, в Каракалпакстане перерабатывается лишь 10 процентов отходов, а в Ферганской и Кашкадарьинской областях — только 20.

В 781 махалле все еще не решен вопрос вывоза отходов. У населения большая дебиторская задолженность по данным услугам. Медицин-



ским, образовательным учреждениям и рынкам требуется 19 тысяч контейнеров.

Нет полигонов для строительных отходов, они сбрасываются вдоль дорог, на обочине полей или в реки. В прошлом году обнаружено 4 тысячи случаев сброса строительных отходов в неполюженных местах.

Нет четкой системы сбора листьев и веток деревьев в кварталах, массивах и аллеях, единой системы хранения, транспортировки и утилизации медицинских отходов.

РАЗРАБОТКА НОВОГО ЗАКОНА

В целом ни один из 197 полигонов отходов по стране не отвечает санитарно-экологическим требованиям, а 24 полигона заполнены. Президент поручил Государственному комитету по экологии и охране окружающей среды и хокимам регионов упорядочить полигоны и ликвидировать те, которые отработали свой ресурс.

Шавкат Мирзиёев указал на важность разработки проекта закона, устанавливающего порядок организации и закрытия таких полигонов.

БОЛЬШЕ ТЕХНИКИ!

Президент поручил увеличить охват услугами по сбору бытовых отходов до 95 процентов и объемов их переработки до 40 процентов, а долю частного сектора в этой сфере до 50 процентов. Для этого ввозимые из-за рубежа техника, комплектующие и запасные части будут освобождены от таможенных платежей сроком на 3 года.

Глава государства дал поручение по закупке для регионов 500 единиц спецтехники, установке 11 тысяч дополнительных контейнеров в социальных учреждениях и на рынках до 1 мая следующего года.

«МАХСУСТРАНС»
РЕФОРМИРУЮТ

Ташкентское предприятие «Махсустрас» будет трансформировано на основе государственно-частного партнерства. Планируется внедрить новую систему взимания платежей за сбор бытовых отходов с применением зарубежного опыта, говорилось на совещании.

ПРОДОЛЖЕНИЕ ПРОЕКТА
«ЯШИЛ МАКОН»

Как известно, в ноябре 2021 года дан старт общенациональному проекту «Яшил макон», в рамках которого запланировано посадить 200 миллионов деревьев. Многие организации, махалли, широкая общественность приняли активное участие в этой акции, посадив 85 миллионов саженцев. Весной планируется добавить к ним еще 125 миллионов деревьев.

«Общенациональный проект «Яшил макон» — это мероприятие, которое не ограничится одним годом. Мы стремимся посадить 1 миллиард саженцев в течение следующих пяти лет. Результат этой работы должен быть виден в каждом районе, это благо дело должно быть сделано добросовестно», — сказал Шавкат Мирзиёев.

«ЗЕЛЕНый ГОРОД»

На совещании объявлено о начале с 1 марта национального мероприятия «Зеленый год». Отмечена важность подбора саженцев, подходящих климату каждого региона, нетребовательных к воде, увеличения количества питомников для их заготовки. Государственному комитету лесного хозяйства поручено безвозмездно раздать населению 10 миллионов саженцев фруктовых и декоративных деревьев.

Подготовила
Лилия РУСАНОВА

Новости

Лидер в каждой махалле

Более 42 тысяч человек приняли участие в отборе на должность лидеров молодежи.

Напомним, что в январе Президент подписал постановление, согласно которому в каждом городке, селе, аule и махалле появится лидер молодежи. Они будут помогать представителям подрастающего поколения развиваться и решать проблемы.

Власти провели конкурс на отбор кандидатов — получилось 4,6 человека на место. Заявки принимались на портале vacancy.args.uz. Республиканская рабочая группа провела собеседования с кандидатами и выбрала лидеров молодежи для всех 9309 махаллей республики.

Востребованные
специалисты

Агентство США по международному развитию (USAID) запустило пятилетнюю Программу по развитию занятости молодежи и предпринимательства в Узбекистане с бюджетом 10 миллионов долларов.

Новая инициатива, реализуемая Американскими советами по международному образованию, позволит учащимся 8–11-х классов получить необходимые навыки

для вхождения в экономику Узбекистана компетентными специалистами и предпринимателями. Программа ориентирована как на занятия в школе, так и после уроков для успешного перехода учащихся к трудовой деятельности.

Особое внимание уделяется повышению роли девушек и людей с особыми нуждами в сфере занятости.

Стартапы, на старт!

Принимаются заявки для участия в финтех-акселераторе Startup Bridge, организованном платформой Uzcard и ГК «Иннотех».

Startup Bridge — международная программа, нацеленная на поиск и развитие финтех-стартапов, обучение и сопровождение молодых предпринимателей.

В акселератор принимаются проекты в таких областях, как управление личными финансами, отложенные платежи и т.д.

Отобранные участники пройдут 10-недельный курс при поддержке профессиональных менторов. Авторы лучших проектов смогут запустить их в партнерстве с российскими технологическими компаниями, а также интегрировать свои разработки в международные экосистемы.

Заявки можно подать на сайте startup-bridge.uzcard.uz до 18 февраля.

Сохраняя историческую
память

Ташкентские махалли включены в Предварительный список Всемирного культурного наследия ЮНЕСКО.

Первые шаги сделаны еще в 2019-м, когда разрабатывался проект «Махалля: урбанистическая и провинциальная жизнь», который был представлен на 17-й архитектурной биеннале в Венеции в 2021 году. Экспозиция и материалы вызвали большой интерес у зрителей, экспертов и зарубежных СМИ.

Далее Фондом развития культуры и искусства при содействии Национальной комиссии по делам ЮНЕСКО была сформирована команда из числа ведущих ученых и архитекторов, которые провели масштабную исследовательскую работу.

Внесение ташкентских махаллей в Предварительный список даст возможность в дальнейшем номинировать их в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО.





(Окончание. Начало на 1-й стр.)

— Жизнь и творчество Навои по праву называют яркой страницей истории узбекского народа. Когда впервые услышали «фрагменты этой страницы»?

— Еще до изучения в школе. В нашей семье прижилась замечательная традиция — чтение вслух. Нас часто отвозили в кишлак под Самаркандом к дедушке. Ему нравилось собирать внуков за столом и читать «Хамсу», терпеливо разъясняя значение байтов. Сначала меня очаровал Фархад, в десять лет познавший все науки и обладающий недюжинной силой. Конечно, это были художественные образы. Но какой мальчишка сдержит восторг, когда узнает, что герой гибнет в кольцо дугу радугой или ловит на аркан планету Марс! Дедушка заострял внимание: богатырь-интеллектуал был скромнее «как новичок, едва по буквам составляющий слова».

После подробных комментариев мы достаточно легко усвоили смысл заключительного дастана «Пятирцы» «Стена Искандера». Потрясла сцена погребения, где все увидели: в руках у непобедимого полководца ничего нет. Какие, бы богатства ни приобрел человек, с собой в мир иной ничего не возьмешь.

Говорят же: «Познанное в детстве словно высеченное на камне». Вот и врезались в память эти воспоминания.

— Как школа пополнила багаж классической литературы?

— Окончил школу №12 в городе Гулистане Сырдарьинской области. Повзрослев с учителями, увлеченными творчеством Навои. Это была настоящая любовь, не про-

диктованная праздничными датами и открытыми мероприятиями, рассчитанными на удивление зрителей. Они как будто из бездонного колодца черпали мудрые мысли поэта-просветителя. Причем заветные слова находили в любых ситуациях.

Случались и курьезы. Когда услышали о красной, желтой и зеленой одежде любимой в одной из газет, переглянулись: у большинства возникла ассоциация со светфором. Педагог услышал пережевывание, заметил улыбки и прочитал мини-лекцию по восточной образности. В дастане «Фархад и Ширин» сначала восприняли зеркало мира как телевизор. Это лишний раз подчеркивает важность не повер-

Имомназаровым, начавшим в 16:00 в институте, закончилась в 20:00 в доме учителя. Чтение наизусть, комментарии и глубокий анализ заставляли забыть о времени — было настолько интересно. Устой мог заниматься любимым делом пять-шесть часов подряд, сопоставляя Навои с Хафизом, Саади, Руми и мастерски увлекая слушателей.


— Произведения Навои способны оказывать влияние на формирование личности. Чему они учат конкретно вас?

— Нет такой черты характера, которая бы прямо или косвенно не отражалась в творчестве этого мастера слова. Он призывает читателя к духовному очищению,

освежить в памяти любимые тексты?

— Творчество Султана поэтов — безбрежный океан, и каждое обращение к нему можно сравнить со сбором жемчуга. Человек получает удовольствие от ценных находок. Создатель «Хамсы» писал: «Я славлю жемчуг слова: ведь оно жемчужиной сердца рождено». Обретение нового смысла при втором, десятом, сотом прочтении неизбежно.

Так как мы педагоги (а Навои высоко оценивал труд наставников в произведении «Возлюбленный сердец»), то вплетаем мудрость поэта-гуманиста в канву занятий. Мне он как-то помог приструнить говорливого студента, который мешал объяснению




Сирожиждинов, который стал для меня наставником, путеводителем и примером не только в сфере науковедения, но и по жизни.

— Какое произведение основоположника узбекского литературного языка любите больше других и почему?

— Часто перечитываю «Лисанут-тайр» («Язык птиц»), то самое произведение, которое потрясло маленького Алишера. В зрелом возрасте он написал свою оригинальную версию в традиции назидания, то есть ответа-подражания. Стихотворный размер и характер рифмовки совпадают с «Речами птиц» Фаридаддина Аттар. Если внимательно читать «Язык птиц», вырисовывается своеобразный

ли нашего университета бывают там часто, проводят мероприятия, посвященные знаменательным датам, и занятия. У них потрясающий энергетический заряд. Как будто сквозь века и годы идет неслышный разговор мастеров слова с современным поколением. Слова, высеченные на постаменте главного памятника: «Поймите, люди всей земли, вражда — плохое дело...» — главный жизненный ориентир. Обращаемся к поэтам их стихами. Связь времен налицо и награждает любителей художественной литературы и родного языка духовной силой.

— Не пытались делать собственные переводы с персидского?



В БЕЗБРЕЖНОМ ОКЕАНЕ ТВОРЧЕСТВА

ностного, а вдумчивого прочтения, с грамотными комментариями учителя, чтобы современные реалии не исказили истинного смысла.

Со школьных лет у меня (одноклассники тоже заводили такие) осталась тетрадь, куда выписывал понравившиеся строки Алишера Навои. Назвал их правилами жизни. С удовольствием перечитываю их сейчас, многие запомнил наизусть. Сила, дух Навои обладатель непревзойденной воспитательной ценности.

Во время тематических мероприятий исполнял роль Султана поэтов, чем очень гордился. И мечтал хотя бы чуть-чуть быть похожим на великого предка.

— Ваша специализация — персидский язык. Во время учебы в Ташкентском государственном институте (ныне университете) приходилось разбирать тексты Фани?

— Известно, что именно этим псевдонимом поэт подписывал произведения, созданные на фарси.

— Безусловно. На занятиях профессоров Ахмадджона Куранбекова, Мухаммаджона Имомназарова, Сарвиноз Сотибондиной неоднократно обращались к персоязычным текстам любимых поэтов в ходе анализа восточной литературы. Не могу сказать, как пара с Мухаммаджоном

совершенствованию. Приведу пример, где говорится о смехе: «Чрезмерный смех — знак нарушения приличий, невоспитанности». В мудрых строках представлено отражение этикета. Можно шлифовать собственное поведение по Навои. А такой совет: «Собирай с юности клад знаний, чтобы тратить их в старости»? Разве он не нацеливает на каждодневное пополнение кладовых разума, накопление мудрости? Этот завет сделал своим ориентиром.

— Приходилось ли выступать с докладами, посвященными Навои, на научных конференциях? Какие темы освещали?

— Во-первых, хочется отметить, что сама тема — большая честь для исследователя или докладчика. К ней нельзя подходить равнодушно. Под руководством наставника доктора филологических наук, профессора Шухрата Сирожиждинова изучая ряд документов второй половины XV века,

удалось идентифицировать письма, написанные поэтом на персидском языке. В ходе научной поездки в Иран ознакомились с некоторыми оригиналами. Принимал участие в международных конференциях «Навои и XXI век», симпозиумах в Иране, Японии, Турции, Казахстане.

— Как часто открываете произведения Навои, чтобы получить какой-то совет или просто

темы. Задан нарушителью порядка вопрос: «Знаете, что вас беспокоит сам Навои?» Тот взглянул на меня с недоумением: «Как это?» Прочитав для него: «Если у тебя есть старание в приобретении знаний, пусть твоя жизнь будет такой же длинной, как жизнь Ноя». В конце семестра узнал, что парень получил отличные оценки по предметам.

Творчество Султана поэтов — океан, великий клад. В нем всегда можно найти что-то новое. Обычный человек при повторном прочтении воспринимает произведение по-другому, а для ученого каждая строка может стать объектом исследования.

— Ваши родители тоже любят Навои? А супруга?

— Удивился бы, если б было по-другому. Недавно подарил им толкование произведений поэта. Обрадовались. Мама занимала нас, детей, поэзией в школьные годы. Декламировала напевно, с особой душевностью, и в такие минуты даже не хотелось бежать играть со сверстниками. Читала не только Навои, но и Машраба, Суфи Аллаяра, Лутфи. Мама много знает наизусть. Отец всегда отзывался на наши просьбы, когда они касались приобретения книг. Мы и раньше часто читали вместе, и сейчас обмениваемся мнениями. Буквально недавно он прочитал «Туркистон кайгузи» и делился с нами впечатлениями. Семья у нас такая. Разговоры о литературе не прекращаются.

Бабушка с дедушкой устраивали поэтические пединки, разговаривая между собой стихами. Звучали Навои, Омар Хайям, Хафиз Ширази, Хувайдо. Наблюдали за ними с интересом.

Супруга — внучка известного науоведа Мухсиждинова Мухиддинова, автора многих книг, заслуженного наставника молодежи, кавалера ордена «Эл-юрт хурмати». Этим все сказано.

Собираюсь на работу, а дочка спрашивает: «Опять идете к дедушке Навои? И опять один. Возьмите нас тоже!» Если вдруг

творческий отчет автора. Мне особенно нравится притча о шейхе Саньяне, которому приходится пройти много испытаний, но он находит в себе силы вернуться к прежним идеалам.

Люблю «Муншаат» («Письма»), содержащие наставления принцу Бадиуззаману и отражающие взгляды Навои относительно управления государством. Я бы назвал их «уроками жизни».

И конечно, «Хайратул-абрар» («Смятение праведных») — моральный кодекс настоящего человека. Навои нужно читать постоянно и следовать его советам. Уверен, это способ стать лучше для каждого.

— Наверняка приходилось работать и в музеях с рукописями...

— Более двух лет работал в Институте востоковедения имени Абу Райхана Беруни, в Иране — в Национальной библиотеке и музее Малик, изучал рукописи в Таджикистане. В них нашел свой научный клад.

— Бывали на Аллее поэтов? Какое чувство вызывает у вас это место, наполненное особой энергетикой?

— Это сакральное место. Представите-

себя на Аллее поэтов, и вы почувствуете, что вы — часть этой великой истории.

— Как звучит тема вашего научного исследования и кто посоветовал обратиться именно к ней?

— «Традиции сочинения текстов эпистолярного жанра в эпоху Темуридов (на примере собрания Абдаллаха Марвариди). В этом письмовнике есть и указы Хусейна Байкары, школьного друга Алишера Навои, разные корреспонденции этого правителя, несколько писем самого Навои и ответы на них, переписка шейхзаде, других известных людей того времени. Документы отражают реальность, высокохудожественную лексику общения, эпистолярный этикет.

Посоветовал тему исследования ректор университета Шухрат

Сирожиждинов, который стал для меня наставником, путеводителем и примером не только в сфере науковедения, но и по жизни.

— Как вы считаете, ученые еще часто будут обращаться к творчеству Навои и совершать новые открытия?

— Повторюсь: это океан, великий клад. В нем всегда можно найти что-то новое. Обычный человек при повторном прочтении воспринимает произведение по-другому, а ученый анализирует, у него каждая строка может стать объектом исследования. По-моему, глубокое изучение жизни и деятельности Алишера Навои, чтобы не оставалось недосказанности и белых пятен, — наша святая обязанность.

— Переводил и анализировал некоторые персидские письма Навои. Переводы включены в статьи, опубликованные в научных журналах Индии, Ирана, Южной Кореи.

Среди писем, по-разному влиявших на меня, — написание его ученикам Абдаллаху Марвариду и Ходже Афзалу Кермони. Наставник — поэт и государственный деятель — подчеркивает: занимая важные посты, они должны в первую очередь думать о благополучии народа. Призывает все человечество развивать и украшать мир добрыми полезными делами.

— Как вы считаете, ученые еще часто будут обращаться к творчеству Навои и совершать новые открытия?

— Повторюсь: это океан, великий клад. В нем всегда можно найти что-то новое. Обычный человек при повторном прочтении воспринимает произведение по-другому, а ученый анализирует, у него каждая строка может стать объектом исследования. По-моему, глубокое изучение жизни и деятельности Алишера Навои, чтобы не оставалось недосказанности и белых пятен, — наша святая обязанность.

— В январе 2017 года глава государства посетил Ташкентский государственный университет

как учителем. Как сказал Президент, «спасение в образовании, спасение в воспитании, спасение в знаниях».

— Как убедить школьников, что литературный багаж будет неполным, если не знать творчество нашего великого предка?

— Оно важно и для общего развития, и для старта в науке. Изучение поэтики Навои, его роли в развитии видов искусства и жанров, образной системы становятся стимулом грамотного подхода к литературе вообще, формируют теоретическую базу, внимательное отношение к слову. В Узбекистане нет ни одного поэта и писателя, который бы не отмечал влияние Навои на собственное творчество. Это истоки нашей национальной литературы.

Учащиеся не должны воспринимать этот ценный пласт культуры как нечто не всегда понятное, и здесь многое зависит от того, как произведение Навои преподносит-

В Узбекистане нет ни одного поэта и писателя, который бы не отмечал влияние Навои на собственное творчество. Это истоки нашей национальной литературы.

ся учителем. Как сказал Президент, «спасение в образовании, спасение в воспитании, спасение в знаниях».

— В январе 2017 года глава государства посетил Ташкентский государственный университет



Собираюсь на работу, а дочка спрашивает: «Опять идете к дедушке Навои? И опять один. Возьмите нас тоже!» Если вдруг на что-то обижаетесь, грозит пожаловаться: «Все-все расскажу, пусть дедушка Навои вас воспитывает!»

узбекского языка и литературы, ознакомился с условиями, созданными в вузе, побеседовал с преподавателями и студентами. За преданность науке и безупречную работу были подарены 20 квартир представителям педагогического коллектива. Вы один из счастливых обладателей нового жилья. С вами как молодым преподавателем Шавкат Мирзиёев провел короткую беседу, проявив интерес к вашему научному исследованию.

— Третпному отношению к культурному наследию страны

нам нужно учиться у Президента. Мне был задан вопрос, не трудно ли молодому преподавателю (тогда мне было 27 лет) выполнять множество служебных обязанностей и совмещать их с наукой. Искренне ответил: «Мы сами взяли на себя такую ответственность и будем служить народу, как завещал великий Навои. Доволен своей профессией, тем более что для продуктивной работы молодежи создаются все условия».

Беседовала Ольга АЛЕКСАНДРОВА



КУЛЬТ СВЕТ

Сколько лет вашему дому?

Хокимият Ташкента запустил проект Age Tashkent – цифровую карту, позволяющую определить возраст зданий в столице в заданный период.



Онлайн-сервис разработал Департамент цифрового развития. Проект дает возможность по-настоящему оценить и увидеть собственными глазами всю богатую историю Ташкента, его архитектурного и археологического наследия.

Пользоваться картой просто: нужно найти интересующий дом, кликнуть по нему, и на экране отобразится подробная информация: дата постройки, формат здания (жилое, административное) и другие данные.

В зависимости от возраста строения окрашены в разные оттенки. Например, более древние постройки отображены цветом сыпучих материалов, соломы и глины. После землетрясения 1966 года к нам пришло метро – его символизирует синий цвет; к периоду независимости отсылает светло-голубой.

Еще на карте есть «тайная комната», которая отображает границы Ташкента в разные годы, крепостную стену вокруг города и все 12 ворот.

Кино об Алишере Навои

Кинематографисты Узбекистана и Таджикистана снимут совместный фильм о средневековых поэтах-классиках.

Лента будет посвящена жизни и дружбе персидского автора Абдулрахмана Джами и узбекского мыслителя Алишера Навои. Съемки пройдут в реальных локациях, где прошла юность знаменитых поэтов. Кинематографисты надеются, что новый фильм поможет не только узнать о жизни и творчестве великих классиков литературы, но и повысит интерес туристов к древним городам региона.

Эта картина станет первым совместным кинопроектом за последние 30 лет.

Внутренний «пейзаж» человека

В столичной галерее Vonut Factum проходит выставка Исомиддина Эшонкулова «Взгляд в пустую стену».



Экспозиция знакомит зрителя с творчеством художника-сюрреалиста, который использует противоречивые, а порой и абсурдные образы. «Сложные сочетания форм и фантастические сюжеты в моих работах не бессмысленны: детали и символы помогают выразить собственную философскую оценку и рассказать, что я понял о людях», – говорит И.Эшонкулов.

Автор характеризует свои работы как «внутренний пейзаж человека», ключом к пониманию которого является цвет. Какое место каждый из нас занимает в мире? Откуда мы приходим и куда уходим? Эти и другие вопросы вдохновляют художника на постоянный творческий поиск, рождающий необычные образы и метафоры.

«Тебе слово!»

Так называется новый проект столичного театра «Ильхом», который дает возможность творческим людям заявить о себе.

Раз в месяц любой желающий может прийти в театр и выступить максимум семь минут на любом языке – узбекском, русском, английском. Участвовать могут все творческие люди старше 14 лет – музыканты, поэты, комики, фокусники, актеры, певцы, танцоры. Встречи проходят каждый второй понедельник месяца.

Для подачи заявки нужно заполнить анкету и отправить в Telegram (@naskanastasya).



Султану поэтов



МОСТЫ ДРУЖБЫ


В декабре 2021 года в столице Республики Корея – Сеуле состоялось торжественное открытие памятника Алишеру Навои

В мероприятии приняли участие Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, представители Олий Мажлиса и широкой общественности.

С тех пор к подножию нового памятника люди приносят цветы, здесь звучат строки Султана поэтов. Прозвучали они и в день рождения выдающегося мастера слова.

Кроме Сеула, памятники Алишеру Навои установлены в Токио, Шанхае, Вашингтоне, Москве, Минске, Баку, Мазари-Шарифе, Оше и Душанбе.

Ольга ЛИДИНА



НЕЗАКАТИВШЕЕСЯ СОЛНЦЕ

У мест, связанных с Пушкиным, особая энергетика. Словно отведая молодильных яблок, проходишь рядом с Царскосельским лицеем, в парке останавливаешься рядом с памятником стихотворцу, светлеешь лицом... То же происходит и в окрестностях Екатерининского дворца, «где смуглый отрок бродил по аллеям, у озерных грустил берегов».

Иная атмосфера на Черной речке. Здесь 27 января (8 февраля по новому стилю) 1837 года состоялась дуэль поэта с Дантесом. А 29 января (10 февраля) в «Литературных прибавлениях» редактор Андрей Краевский поместил короткий, но проникновенный некролог: «Солнце нашей поэзии закатилось! Пушкин скончался... в середине своего великого поприща!..» 185 лет прошло с тех пор.

Оказавшись в Санкт-Петербурге, направляюсь в район роковой дуэли и... не могу отыскать памятник «невольнику чести». Помогают современные технологии. Разгадка долгих поисков проста: памятник мало напоминает то, что в разных городах мира увековечили память гения. Скамейка, на которой лежит раскрытая книга. Рядом цилиндр и плащ. Короткое название: «Пушкин ушел». На несколько мгновений накрывает волна безысходности. И вдруг взгляд падает на гранитную глыбу: «Я жду тебя,

мой запоздалый друг». Обращение к лицейскому товарищу Вильгельму Кюхельбекеру из стихотворения «19 октября» («Роняет лес багряный свой убор», 1825) меняет адресата. Великий поэт ждет тех, кто придет после него, – представителей других веков – и в них продолжает пробуждать лирой «чувства добрые».

Федор Тютчев в стихотворении «29 января 1837 года» писал: «Тебя ж, как первую любовь, России сердце не забудет!» Только ли России?! В Узбекистане практически полностью переведено творчество Пушкина. Есть произведения, к примеру, «Памятник», имеющие до десяти вариантов на узбекском языке. А «Евгений Онегин», вошедший в историю литературы как первый реалистический роман в стихах?! У этой «воздушной громады» два переложения: колоссальный труд проделали Айбек и Мирза Кенжабек. «Дубровского» перевели Чулпан и Маруф Хаким. Читатели Узбекистана имеют



возможность ознакомиться со стихами, поэмами, повестями, трагедиями Пушкина как на русском, так и на родном языке.

Составляя внушительный список, трудно упомянуть всех, кто открывал нашему народу волшебство пушкинского слога: Гафур Гулям – «Скупого рыцаря», Хамид Алимджан – «Кавказского пленника» и «Русалку», Абдулла Каххар – «Капитанскую дочку», Иззат Султан – «Станционного смотрителя», Миртемир – «Руслана и Людмилу», «Сказку о царе Салтане», «Сказку о рыбаке и рыбке»... Это тот самый случай, когда понятие «и другие» становится необъятным, потому что время диктует потребность в новых переводах.

Народный поэт Узбекистана Эркин Вахидов в статье «У каждого поколения свой Пушкин» отмечал эту необходимость: «Проходят годы, и каждое новое поколение читает Пушкина по-своему. Поэтому произведения таких гениев переводятся снова и снова». Народный поэт Абдулла Арипов так характеризовал мастерство русского собрата: «...узбекские литераторы, и я сам в их числе, получили импульс гражданского героизма от Пушкина».

А впервые по-узбекски всемирно известный автор «заговорил» в конце 80-х годов XIX века в «Туркистон вилоятининг газетаси» «Сказкой о рыбаке и рыбке», строки которой были переведены в форме масневи (поэма большого объема, написанная двустихиями).

Подготовила
Людмила ПОЛОНСКАЯ



CHIQINDI MIQDORI AHOLI SONIDAN TEZROQ O'SMOQDA

Yer yuzida har kuni o'rtacha hisobda 11 250 000 tonna chiqindi hosil bo'lar ekan. Tasavvur qiling, bu kamida 3 km balandlikdagi chiqindi uyumi degani. Qo'rqinchlisi bu bir kunlik natija. Biz foydalanadigan va sotib olayotgan mahsulotlarimizning 99 foizi(!) 6 oylik foydalanish muddatini o'tamay turib chiqindi qutisidan joy olmoqda.

Dunyoda har kuni ming-minglab fabrika va zavodlar ish boshlaydi. Ularning barchasida zamonaviy texnika vositalari orqali insoniyat uchun kerakli buyumlar ishlab chiqariladi. Ammo o'sha ishlab chiqariluvchilar vaqt o'tib hayvonlar, qushlar, daraxtlar, dengiz va undagi jonzotlar, atmosfera, yoinki odamzodning o'ziga ham katta zarar keltiradigan mahsulotga aylanadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi har yili 1,5-2 foizga, chiqindi miqdori esa 6 foizga ko'payib bormoqda. Tabiiyki, chiqindini butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Ammo uni qayta ishlab, kelajakda katta ifloslanishlarning oldini olish mumkin. Bu tabiiy resurslarni tejash, Yer yuzini toza va tabiiy saqlashning samarali vositasidir.

Aholi salomatligini o'ylaydigan davlatlar chiqindi miqdorini kamaytirish, uni yig'ib olish, saralash, qayta ishlash va yangi mahsulot shaklida fuqarolarga yetkazishning strategik, kamxarj va unumli yo'llaridan foydalanishni allaqachon boshlagan. Respublikamizda ham bu masalaga befarq bo'linmagan holda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yil 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimi va ekologik holatni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish borasidagi dolzarb vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Majlisda Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidladi:

"Dunyo miqyosida sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya bilan bog'liq muammolar birinchi darajali muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda. Avlodlarimiz

bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. Buning uchun biz tabiatga e'tibor berishimiz, faqat bugunni emas, yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz zarur.

Eng muhim masala — aholining ekologik madaniyatini oshirish. Bugun ko'chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamlar tashlab ketgan chiqindilarni ko'rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Axir, muqaddas kitoblarimizda ham "Poklik iymondandur" deyilgan...

Albatta, bunday muammolarini faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Mahallada, ko'chalarda chiqindi tashlagan kishini ko'rganda "bu ishingiz noto'g'ri bo'ldi", deydingan muhitni shakllantirishimiz, odamlarni bunga o'rgatishimiz kerak. Bu — hammamizning ishimiz va insoniy burchimizdir".

Masalan, dunyoning eng ekologik toza mamlakatlari, deya e'tirof etiluvchi Shvetsariya va Singapurda chindan bu sohada ko'zga ko'rinarli natijalar qayd etilgan. Shvetsariyada har bir fuqaro chiqindi bilan qanday ishlash, nimani qachon va qayerga tashlash kerakligi bayon etilgan qo'llanma bilan tanishib chiqqan. Mamlakatning har bir xonadonida chiqindini turiga qarab saralash uchun maxsus qutilar joylashtirilgan: qayta ishlanadiganlari alohida qutiga, ishlanmaydiganlari boshqa qutiga.

Shvetsariya chiqindixonalarida hamma narsa tartib bilan joriy etilgan. Fuqarolar ham bunga qat'iy amal qiladi. Ruksat etilma-

EKOLOGIYA



gan joyga chiqindi tashlaganlik uchun katta miqdorda jarima belgilangan. Singapurda ham xuddi shunday holat namoyon bo'ladi. Mamalakatda bu tizim 2014-yilda to'liq nazorat ostiga olingan. Ko'p qavatli uylardagi xonadonlar oshxonasiga maxsus quvurlar ochilgan. Chiqindilar turiga qarab saralab, quvurlarga tashlanadi. Quvurlar o'ta mustahkam. Bu ulardan noxush hidlar chiqishidan saqlaydi.

Bu holatni qonun bilan tartibga keltirish to'g'ri, ammo insonlar o'zini o'zi taftish qilishi ham kerak. O'zlari yashab turgan shahar yo qishloqni jarima to'lamaslik uchun emas, yaqin kelajakda shu yerda o'z farzandlari yashashini anglab toza va ozoda saqlasa, aholida bu bo'yicha bilimlar yetarli bo'lsa, maqsadga yanayam tezroq yetiladi.

Chiqindilar kundan kunga ko'payib bormoqda. Lekin ularni yig'ish, saralash, qayta ishlash va utilitatsiya qilish ahvoli qoniqarli emas. Misol uchun, Qoraqalpog'istonda 10 foiz, Farg'ona va Qashqadaryoda 20 foiz chiqindi qayta ishlani, xolos. 781 ta mahallada chiqindilarni olib chiqish masalasi hal etilmagan. Aybni faqat davlat tashkilotlaridan qidirish ham xato. Aholining bu sohada xizmatlar bo'yicha debitor qarzdorligi ham ko'p. Tibbiyot va ta'lim muassasalari, bozorlar uchun 19 ming dona chiqindi konteynerlariga ehtiyoj bor.

Mahalla, massiv va xiyobonlar hududidagi barg va daraxt shoxlarini yig'ishtirish bilan shug'ullanadigan mutasaddi ham yo'q. Bu masalani hamma bir-biriga tashlash bilan ovora. Tibbiyot chiqindilarini saqlash, tashish va zararsizlantirish bo'yicha ku gapirmasa ham bo'ladi. Hatto yagona tizim ham yo'lga qo'yilmagan.

Umuman, yurtimizdagi 197 ta chiqindi poligonining birortasi sanitariya va ekologiya talablariga javob bermaydi, 24 tasi to'lib bo'lgan.

Sohadagi muammolar hali bu borada ancha ishlar qilinishi kerakligini yana bir bor esga soladi. Muammoga bee'tibor bo'lish uning yanada kattalashib, murakkablashib ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun davlat rahbari tomonidan mutasaddi tashkilotlarga kerakli topshiriqlar berildi. Qo'yilgan vazifalar o'z vaqtida bartaraf etilsa, kelgusida katta xavf so'lishi mumkin bo'lgan muammoning oldi olingan bo'lardi.

Lobar QODIROVA

Musiq — KO'NGIL TILI

Inson hayotida qo'shiqning o'z o'rni, o'z vazifasi bor. Qo'shiq kishilarni yashashga, kurashga chorlaydi, mehnatga, muhabbatga ruhlantiradi, dard-u qayg'usiga malham, baxt-u quvonchiga sherik bo'ladi. Qo'shiq xalq orzu-armonlarining ifodasi, ruhiyatining ko'zgusi hisoblanishi shundan.

Musiqaning inson ma'naviyatiga ta'siri haqida so'z ketganda buyuk Sharq mutafakkiri Forobiyi eslamay iloj yo'q. Forobiy qomusiy olim bo'lish bilan birga buyuk musiqashunos ham edi. Uning musiqa ilmi sohasidagi faoliyati faqat nazariy qarashlar bilan chegaralanib qolmasdan, amaliy ifodasini ham topgan. Forobiyning o'z davri uchun yangilik bo'lgan musiqa asbobi yaratgani, mohir sozanda va bastakor sifatida tanilgani haqida rivoyatlar ko'p.

Forobiy o'zining "Musiq" haqida katta kitob" asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa ehtirolarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi. U musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar xususida yozar ekan, musiqaning axloqiy-tarbiyaviy jihatlari haqida diqqatni jalb etadi. "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, — deya yozadi Forobiy "Ixxo al-ulum" asarida, — o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan (odamlar) xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun o'vozlarining ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga

solinishi va substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi".

Musiq — ona allasidan to operagacha — inson qalbi va ruhiyatiga malham bo'ladi. U odamlardagi eng yaxshi fazilatlarini kuchaytirgan. Shuning uchun musiqa ko'pincha omma va xalqqa ijro etiladi, ko'pchilikning badiiy-estetik ongi va tuyg'ularini uyg'unlashtirishda ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyati uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zining shodligi va iztiroblarini, ezgu ideallari va yuksak insoniy tushunchalarni qo'shiq orqali ifodalab kelgan. Ana shu ma'noda qo'shiqchilik san'ati har bir xalqning hayoti, tarixi, taqdiri va go'zallik haqidagi tasavvurlarining jonli va o'lmas sadolaridir.

Sharqda odamni norasida go'dak nigohi bilan kuzatish ma'nosidagi "aql tishi" iborasi ko'p qo'llaniladi. Bu ibora bolaning to es-hushini tanib olungacha bo'lgan davrida dunyoqarashi eshitishiga, ya'ni tarbiyaga muhtoj ekanini ifodalaydi. Koinotning murg'ak farzandi hisoblanmish inson bolasi "aql tishi" chiqishi uchun hali ko'p tinglamog'i va saboq olmog'i lozim. Mahatma Gandi aytganidek, "Agar diqqat-e'tibor bilan tinglay olsak, Tangri taolo har doim biz bilan o'z tilimizda muloqot qiladi". Bino-barin musiqa tilini tushunish ko'nglimizni tushunish demakdir.

Mehrino
EGAMBERDIYEVA,
Hazorasp tumanidagi
5-maktabning musiqa
fani o'qituvchisi



14-fevral — Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun XVI asr bunyodkori

Insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqta-da dunyoga kelgan, olamni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bu yil 541 yil to'ladil

Shunday holatlar ham uch-rab turadi: goho 5 yil avval o'qigan kitobingiz nima haqida ekanini unutib qo'yasiz. Bu tabiiy holat, aslini olganda "Inson" so'zining arabchadan tarjimai "unutmoq" degani ekan.

Ammo tarixda shunday insonlar borki, nomi xotiradangina emas, qalblardan ham hech qachon o'chmaydi. Necha asrlar o'tsa ham ehtirom va hurmat bilan eslanadi, tilga olinadi. Nomi tarix sahifalariga zar bilan bitiladi. Shunday buyuk tarixiy shaxslardan biri, boburiylar sulolasi asoschisi hisoblanuvchi Bobur Mirzodir!

Oradan o'tgan 5 asrdan ziyodroq muddat bizni Bobur bilan begonalashtira olmadi, hanuz uning ijodini yonib o'rganuvchilar oramizda juda ko'p.

Shu o'rinda shoh va shoir Zahiriddinning chigal taqdiri va o'g'ir qismatiga biroz to'xtalib o'tsak: Farg'ona viloyati hokimi bo'lgan otasi Umarshayx Mirzo 1494-yil fojiali tarzda halok bo'lgach, taomilga ko'ra, endigina 12 yoshga qadam qo'ygan o'g'li — Bobur taxtga o'tqaziladi. Albatta, bu hali bolalik bilan xayrlashib ulgurmagan o'smir uchun juda katta mas'uliyatni yuklar, bun-

da Shayx Mazidbek, Boboquli Boboalibek, Qosim Qavchin va onasi Qutlug' Nigorxonim yordam berishar edi. Aynan shu davr Boburning kelajak hayotida muhim burilishlar davrini boshlab berdi. Taxtga chiqqan kundan boshlab, turli xiyonat-u zarbalarga duch kela boshladi. Goh ishongan beklari uni o'rniga ukasini taxtga o'tqazishga urinsa, goh o'z bobosi dushmanlari bilan til biriktiradi.

Ota yurtini dushmanga tashlab, sharmandalarcha tark etishga majbur bo'lganida ham qonidagi g'alabaga bo'lgan ishonch, yuragidagi Vatan ishqisi o'nmaydi.

Bu mag'lubiyatlar uni yanada kuchli bo'lishga undab, kelajakdagi ulkan g'alabalarga tayyorlagan bo'lsa, ne ajab. Misol tariqasida, 240 navkari bilan 7 mingga yaqin qo'shinga ega tajribali hukmdor — Shayboniyxondan Samarqandni tortib olishi yoki Panipat jangida 12 minglik qo'shini bilan 100 ming askarga ega Ibrohim Lo'diyni yer tishlatishini keltirishimiz mumkin.

Ammo yoshiga nisbatan katta kuch va tajribaga ega bo'lishiga qaramay, ota yurti Samarqandga qilgan 1497, 1500 va 1501-yillardagi



yurishlari muvaffaqiyatsiz tugayveradi. Bunga asosiy sabab Temuriy shahzodalarning hanuz birlasha olmagan, asosiy dushman qolib, bir-birlari bilan qirpichoq bo'lishgani edi.

Shu tariqa taqdir shamollari vatansevar Zahiriddinni Hindiston sari olib ketdi.

Hind o'lkasiga 5 marta yurish qilib, nihoyat 1526-yil ishg'ol etgan shahzoda o'lim bilan yuzma-yuz kelishiga bir baxya qoldi. Shu yilning dekabrda Zahiriddinni zaharlashga urinib, suiqasd uyushtirgan bo'lishsa-da, tasodif tufayli omon qolib, ammo turli kasal-

liklar bilan kurashib yana 4 yilga yaqin umr ko'rdi.

Bir qalbda ham shoir Boburni, ham shoh Zahiriddinni birligida saqlay olgan bu dilbar shaxs yuritgan siyosat tufayli o'lka gullab-yashnadi, adolatli qonunlar, odilona siyosat sabab 4 asrdan ko'proq (Angliya bosqiniga qadar) hukm surgan sulolaning vakillari, Bobur avlodlarini bugun ham Hindistonda uchratish mumkin.

Siyosiy maydonda mahoratli sarkarda, davlat arbobi, adolatli mamlakat asoschisi sifatida hurmat qozongan Bobur, adabiyot va san'atda ham o'z o'rniga, so'ziga ega

ijodkor edi. O'zbek va tojik tillarida qalam tebratgan zullisonayn shoirdan bizgacha juda ko'p badiiy meros qolgan.

G'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, masnaviy, muammo kabi janrlarda barakali ijod qilib, 400 dan ziyod she'r, 119 g'azal va 231 ruboiy yozdi. Ona tilida yaratgan ijod namunalari to'plab, "Hind" va "Kobul" devonlariga kiritadi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyodan Hindistongacha bo'lgan masofa, 50 yillik tarixiy davrdan hikoya qiluvchi, turkiy xalqlar uchun alohida qiymatga ega memuar asar — "Boburnoma"ning ham muallifidir.

Ilk nomi "Vaqoiy" bo'lgan bu asar Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindistondagi voqealar bilan birga, o'z davri kishilarining boshdan o'tkazgan kechinmalari, mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy ahvol, aholisi va iqlimi haqida ham batafsil ma'lumotlar manbayi hamdir.

1993-yili shoir ijodini o'rganish maqsadida Xalqaro Bobur jamg'armasi, Andijonda "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi tashkil etilgan, fanlar akademiyasida Bobur nomidagi medal ta'sis etilgan.

Mustaqillik yillarida shoir nomi berilgan universitet, teatr, kutubxona, istirohat bog'lari va ko'chalar bobomiz nomini abadiylashtirish yo'lida qilingan ezuq amallarga misol bo'la oladi.

Zero, millatning asl farzandlari hech qachon unutilmaydi!

Ziyoda RAHIMBOYEVA

Mashaqqatli yo'l

Kelajakda kim bo'lish, qanday yo'lni tanlash haqida o'ylar ekanman, savollarimga javobni atrofdagi insonlardan izlashga qaror qildim.

"Kelajak sari yo'l deganda nimani tushunasiz?". Bu savolga javoblar har xil, ammo mohiyatan bir xil:

"Uy, mashina, obro'li lavozim, ko'p pul"...

Chunki ko'pchilik kelajakda tezroq boyishni, to'kin hayotda yashashni orzu qiladi. Biroq bir insonning savolimga bildirgan fikridan, rosti, tushunchalarim o'zgarib ketdi:

"Kelajakda chiroyli yashashni orzu qilish yomon narsa emas, ammo orzu qilib o'tiraverishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Avvalo, uni maqsadga aylantirish kerak. Bu maqsadiga erishishni chin dildan xohlagan insonlarga xos. Dangasa odamlar shu bosqichdayoq ortga qaytib ketishadi. Uddalagan insonlarni esa endi xilma-xil sinovlar, qiyinchiliklar kutadi. Sinovlarda yengilmay, qiyinchiliklarga bardosh berib, sabr va shijoat bilan oldinga intilgan insonlar oxir-oqibat maqsadiga erishadi. Chunki bu hayotda ilojisiz narsaning o'zi yo'q, mashaqqatli sinovlar esa sizning istak-

laringiz qanchalik kuchli ekanini aniqlash uchun, xalos!"

Qarshimda turgan bu inson nufuzli oliy o'quv yurtini tamomlab, o'zi orzu qilgan kasbi bilan shug'ullanayotganini, ammo bu natijaga erishish u qadar oson bo'lmaganini qo'shimcha qildi. Uning yutuqlariga havas qilganim uchunmi yoki aytgan gaplari boshqalarnikidan butunlay farq qilgani uchunmi, bilmadim, bu gaplar men uchun yagona haqiqatday tuyildi.

Shu kunlarda bu so'zlar qulog'im ostida jaranglab, mening kelajakka bo'lgan qarashlarimni o'zgartirib yubordi. Haqiqatan ham, intilgan, chin dildan xohlagan odam hamma narsaga erisha oladi-ku!


Aziza FOZILOVA,
Toshket shahridagi 269-maktabning
7-sinf o'quvchisi



Navoiy qoshidagi hayratlarim

Besh asrkim nazmiy saroyini,
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyni,
Qalam bilan oldi Alisher.

Abdulla ORIPOV



Tarixda qilich dami bilan yarim dunyoni zabt etgan sarkardalar, shohlar o'tgan. Ammo ularning tig'i yetmagan joylarni o'z qalami – so'z qudrati bilan olgan bir shoir borki, uning ilm va ma'rifati quyoshi asrlar bo'yi qalbmizni yoritib turibdi. Alisher Navoiy – ikkinchi mingyillikning dahosi. Uning ilm-u maorifda qanchalar sobit turgani benazir asarlarida o'z aksini topgan.

Bugungi kunga qadar Navoiy asarlarini o'rganib, badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar yaratgan yozuvchi, olimlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Ammo ularning barchasi ham so'nggi ming yillik ichida ardoqli adibimiz Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning "Navoiy"-sidek solim va benazir asar yaratgani yo'q edi. "Navoiy" romani o'zining tarixiy va badiiylilik jihatidan, o'quvchini shoir yashagan davrga bevosita olib kira olgani bilan alohida ajralib turadi.

Bu asarni o'qish mobaynida Navoiy siymosini har jabhada qayta va qayta kashf qildim. Uning ilm-u maorifdagi saboti, turkiy nazm bo'stoniga otilgan toshlarga qalqon bo'lgani, ishq yo'lida fidolarga, ilm yo'lida fozillarga qay darajada jonkuyarlik bilan yordam berishi meni hayratda qoldirdi. Ayniqsa, talibi ilmlarga, yosh rassomlar, tarixchilar xattotlarning ilm olishiga ko'maklashishi tahsinga sazovordir.

Alisher Navoiy yoqqan ilm va fan mash'ali ne-ne ijodkorlarning hayot va ijod yo'lini yoritgan. Kamoliddin Behzod, Xondamir kabi noyob iste'dod sohiblari yaratgan yetuk asarlar so'zimiz isbotidir. Navoiy yaxshi ustoz va murabbiy ham bo'la olgan. Romanni o'qish jarayonida bir qancha xayratomuz tarixiy voqeiklarga ham duch keldim. Xususan, buyuk musavvir, iqtidorli rassom Kamoliddin Behzodning ilm olishi va o'z iste'dodini yuzaga chiqarishida Navoiyning o'rni katta bo'lgan. Yosh rassomning ilk



serjilo chizmalarini ko'riboq unga mehr qo'ygan Navoiy uning ham ma'naviy, ham moddiy homiysiga aylanadi.

Navoiy haqidagi fakt va mulohazalarni o'qir ekansiz sizda bir talay savollar tug'ilishi tabiiy. Nahotki bugungi zamonamizda ham shunday shoir va vazirlar yo'q? Bor bo'lsa, nega ularning mehnatlari o'z mevasini bermaydi? Ha, bu savollarga javob topmoqlik biroq qiyin. Ammo bir haqiqat borki, xalqqa berilgan ilm hech qachon qumga singib ketmaydi va u kun kelib, albatta, o'z mevasini bergay. Oddiy xalqni ilmiy, ma'rifatli qilish esa eng oliy saodatdir.

"Ilmni xalqqa beringiz, tatabbu va tafakkur bilan ilmni kengaytirmoqqa harakat qilingiz! Ilm ko'mig'liq xazina emas, jonli daraxtdir, o'smog'i, gullamog'i, meva bermog'i kerak", deydi Navoiy. "Navoiy" romanida o'quvchini qiziqitiruvchi shoirilar, olimlar o'rtasidagi munozaralar va bahslar ham asar qiymatini yanada oshirgan. Xususan, forsiygo'y Binoiy va Navoiy o'rtasida yuzaga kelgan turkiy tilning mushohadasi meni hayratga soldi. Turkiy ona tilimizni yerga urib, uni g'aliz, dag'al deya, masxara qilishga chog'lanayotgan Binoiyning so'zlari mening ham jahlimni chiqardi. Ammo kamtar va donishmand shoirimizning unga javoblaridan keyin ko'nglim joyiga tushdi. Turkiy tilimizni o'sha davrdan hozirga qadar o'z so'zlari ila himoya qilib kelayotgan Navoiy bobomizga nisbatan mehrim yana bir karra oshdi.

"... Tilimizda daqoyiq ko'p. Ammo bu kungacha hech kishi uning haqiqatiga nazar tashlamabdir. Afsuski, yulduzlardan yorug'roq gavharlari yashirin qolib, balki unutilish darajasiga yetibdur. Elimizning shoir yigitlari oson yo'lni ko'zlab, yolg'iz fors tili bilan tarannum etdilar. Tilimizda nozik ma'nolarni, ruhning butun jilvalarini ifoda qilg'uvcchi so'zlar va shakllar shunday ko'pdiki, forsiyda ularning biri ham topilmas, forsiygo'ylar fasohat da'vosi bilan qanchalik lof urmasinlar, bizing tilning vus'ati, husni zanginligi oldida so'z aytishdan ojiz qolurlar". Bu munozarani o'qir ekanman xayolimda Navoiy va Binoiyning siymosi gavdalandi va bu munozarani men nazmiy qalamga oldim:

MUNOZARA

Binoiy: Nazm shunday gulshanki,
forsiy bilan muattar,
Forsiy bilan jon olmishdir,
forsiy bilan gul tutar.

Navoiy: Adl so'zni xalq aytar,
aytmas aslo xaloyiq,
Turkiyda ham ko'p erur,
Inja ila dadoyiq*.

B: Sa'diy bila Nizomiy bunda
topmish saodat,
Bul chamanda turkiy lahja,
turk so'ziga na hojat?

N: So'zlaringiz tinglab harchand,
tavsif qildim Binoiy,
Turk nazmiga yolg'on so'zlab,
qildingiz ko'p sazoyi.

B: Tilga olsam, tilim chuchuk,
tilim taxir turk so'zina,
Temirchining taq-tuqidek
ko'rinadi ko'zima.

N: Biroz yanglish o'ylamishsiz,
turkiygo'ylar haqida,
Forsiy tildan qolishmasdir,
turkiy zamon nazmidma.

B: Bizga ma'qul forsiy g'azal,
forsiy Xamsa, ruboiy,
Latif "Foniy"*** yarashgaydir,
sizga ham xo'p Navoiy.

N: Yod ayladim go'daklikdan,
bulbullarning vasfini***,
Muddaoyim, el-ulusga qaytarmoq
turk nazmini.

B: Boqing, axir, boqing bundoq
forsiy qalam bog'iga,
Gulchambarlar qo'ydi,
axir nazmi gulshan toqiga.

N: Hech shubha yo'q, aziz inim,
forsiy bo'ning husniga,
Lek turkiy ishq joylangandir,
turkiygo'ylar ko'ksiga.

B: Haq! Haqning ishqin buzib
bo'lmas, tuzib bo'lmas qaytadan,
Ne ham dardim, endi do'stlar,
men ham turkiy aytaman.

Navoiy siymosi shunday ajib, go'zalki, uning nazm ummonidan qancha ko'p gavhar tersangiz, shuncha ko'p bu ummonga sho'ng'ib boraverasiz. Oybekning "Navoiy"sidek roman, Alisher Navoiy obrazini yaratmoq hammaga ham nasib etavermaydi. Ammo bunday mas'uliyatli va sharaflini biz bilan zamonadosh yashayotgan iste'dodli yozuvchi. Isajon Sulton o'z zimmasiga oldi. Tarixiy nomlar, o'xshatishlar, Navoiyning bolalik yillarida yozilgan inja satrlarining yozilish tarixi-yu yigilitlik chog'idagi o'ylari va kamolotga erishgan davrigacha bo'lgan davrni serjilo chizgilarda qalamga oldi. Misol uchun bizga tanish va yod bo'lib ketgan:

Orazin yopqach ko'zimdin
sochilur har lahza yosh,
O'ylakim, paydo bo'lur yulduz,
nihon bo'lg'ach quyosh.



misralarini Alisher Navoiy oilasi bilan Iroqqa qilgan safarida, ya'ni Taft shahrida yozdi deb ko'rsatadi. Bolaligidanoq har narsada go'zallik, ma'no durlarini ko'ruvchi Navoiyning ushbu misralariga Hirotning eng mashhur shoiri Lutfiy forsiy va turkiyda yozilgan o'n ikki ming baytini almashmoqqa tayyor ekanini aytib, hayratini yashirmaydi.



Isajon Sulton Navoiy "Xamsa"sidagi obrazlar shunchaki, xayoliy emasligini asosli dalillar bilan ochib beradi. Misol uchun, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning tog' yo'nish jarayonini aynan hayotda ko'rgani va bu yigit o'z yorining visoliga yetishish uchun tog'ni teshib, suv chiqarayotganini o'z ko'zlari bilan ko'rganini aytadi. Demak, Navoiy hech bir asarini tasodifan yozmagan va asarlaridagi qahramonlar hamda obrazlarni xalq ichida ko'rib, bilib yurgan.

Oybekning "Navoiy"sida Alisher Navoiy tilidan ilm daraxtga qiyoslanib, uni xalqqa berish kerakligi aytilsa, Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida ilm ohanraboga o'xshatiladi: "Ilm bir ohanrabodir, — der edi mavlono. — Ichingizda uni talab qiluvchi bir xususiyat mavjuddirki, istasangiz ham, istamasangiz ham talab qilmoqdadir. Chunki shu bilan ovunib, shu bilan shodlangaydir. Quyosh tongdan shomga qarab botgaydir, biroq ong quyoshi sira botmagaydir. Dengiz Shomdan boshlanib Rumda tugasa, ilm dengizining oxiri yo'qdur".

Har ikki asar ham xalqimiz ma'rifati oshirishga xizmat qiladi va tengdoshlarimga ularni qunt bilan o'qishni tavsiya qilgan bo'lardim. Men bu asarlarni o'qib, hayratlandim, zavqlandim, hatto ilhomlandim. So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyga mehrim yana bir karra oshdi.

**Mashhura ABDURAYIMOVA,
O'zJOKU 2-bosqich talabasi**

* Dadoyiq — ingichka ma'nolar.

** Foniy — Alisher Navoiy forsiyda yozgan she'rlariga "Foniy" taxallusini qo'llagan. Bu yerda shunga ishora.

*** Bulbullarning vasfi — bu yerda "Mantiq ut-tayr"ga ishora.



BIZ KITOB DAN HAM KO'RA OSHNI SEVAMIZ (MI?)

Kitob o'qish shaxsiy rivojlanish uchun eng yaxshi yo'llardan biridir. Bir hafta 168 soatdan iborat. Bu vaqtning asosiy qismini o'qish, ish va kundalik yumushlarni bajarishga sarflaymiz. Lekin hech o'ylab ko'rganmisiz, necha soatni kitob mutolaasiga ajratamiz?

Jahon madaniyati indeksi reytingi (World Culture Index Score) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda kitob o'qishga eng ko'p vaqtni sarflaydigan mamlakat Hindiston ekan. Hindlar hafta davomida o'rtacha 10 soat 42 daqiqa kitob o'qir ekan. Balki shuning uchun dunyodagi eng mashhur Google, Microsoft, Twitter, Adobe, IBM, Mastercard kabi kompaniyalar bosh direktorlari aynan shu mamlakatdan chiqqan.

Hindistondan keyingi ikkinchi va uchinchi o'rinlarda Tailand (aholisi haftada o'rtacha 9 soat 24 daqiqa vaqtini mutolaaga ajratadi) va Xitoy

(aholisi 8 soat kitob o'qishga vaqt ajratadi) egallagan. Keyingi o'rinlarni Filippin (o'rtacha 7,36 soat), Misr (o'rtacha 7,30 soat) egalladi.

Bu reytingda dunyoning 30 davlati joy olgan bo'lib, afsuski, ular orasida O'zbekiston yo'q. Lekin bu O'zbekiston aholisi kitob o'qishga vaqt sarflamas ekan, degan xulosa chiqarishga asos bo'lmaydi. Shunchaki, bu borada tadqiqotlar olib borilmagan yoki olib borilgan bo'lsa ham O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytidan bu haqida ma'lumotlarni topib bo'lmaydi.

Demak, bizni o'rab olgan yuqori texnologik qurilmalar, smartfon, kompyuter, internet, ijtimoiy tarmoqlar doimo kitob o'qishga ajratish mumkin bo'lgan vaqtlarimizni o'g'irlayapti. Bizdan oldingi avlod kunduzi va kechalari ham kitob o'qishga vaqt topishgan. Hozirgi avlod esa kun-u tun ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlar bilan band.

E'tiboringizni AQShning mashhur Huffington Post nomli nashri o'tkazgan so'rovnoma qaratmoqchimiz. Bu nashr so'rovnomasida qatnashgan har 100 kishining 28 nafari so'nggi bir yil ichida, hatto bitta kitob o'qimaganini ta'kidlaydi. Bu millat uchun, uning rivoji uchun katta fojia.

Hozir kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Yosh kitobxon oila" va "Yosh kitobxon"

tanlovlari, "Zukko kitobxon" intellektual turniri o'tkazilayotgani fikrimiz dalilidir. Tanlov yakunida g'oliblar katta-yu kichik sovg'alardan tashqari avtomobil bilan ham taqdirlanadi. Lekin bular mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun yetarli emas.

Orzudagi O'zbekistonda odamlarimiz avtobus va metroda ketayotganida o'yin o'ynamaydi, ijtimoiy tarmoqda bir-biridan bema'ni va bachkana rasm, videolarni tomosha qilmaydi. Ularning qo'llarida kitob bo'ladi. Ular quloqchinda qandaydir qo'shiq eshitmaydi, aksinch, audiokitoblarni tinglayotgan bo'ladi.

Har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan doimiy ravishda kitob o'qib berishi kerak, toki bolalarda kitobga muhabbat shakllansin. Har bir xonadondagi javon kamida dunyoning eng mashhur asarlar

o'ntaligi, o'zbek milliy adabiyotlari bilan to'ldirilib borilishi zarur. Har bir shahar va tumanda, mahalla va yularda kichik-kichik kutubxonalar bo'lishi lozim. Bu aholining kitob o'qishga mehrini yana-da oshiradi.

Xalqimiz orasida "Pulingdan bir puling qolsa ham osh ye, kuningdan bir kuning qolsa ham osh ye" degan maqol bor. Bu xalqimizning qanchalar oshga muhabbat qo'rganini ko'rsatadi. Kitob mutolaasi uchun ham shunday muhabbat qo'yish kerak. Ular shunchalik ko'p kitob o'qishi kerakki, toki bu maqol "Pulingdan bir puling qolsa ham kitob ol, kuningdan bir kuning qolsa ham kitob o'qi"ga o'zgarsin.

Sardor SURMONOV,
Toshkent davlat yuridik universitetining xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

Aholini ro'yxatga olish bo'yicha bilishimiz kerak bo'lgan 6 ta FAKT

BU QIZIQ!

1. Aholini ro'yxatga olish O'zbekistonda 1-marta o'tkazilmoqda.

2. O'zbekiston Respublikasi aholisini ro'yxatga olish 2023-yilda bo'lib o'tadi. 2021-yil 1-noyabrdan 25-noyabrgacha 4 ta hududda sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkazildi.



3. Aholini ro'yxatga olish har bir fuqaro uchun muhim, chunki u davlatning kelajakda rivojlanishini belgilaydi. Aholini ro'yxatga olishda ishtirok etish inson va fuqaroning ijtimoiy burchidir.

4. Ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirishda pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning boshqa shaklini ko'rsatish shart emas.



5. Aholini ro'yxatga olish paytida mamlakatda bo'lgan barcha O'zbekiston fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ro'yxatga olinadi.

6. Aholini ro'yxatga olish jarayonida olingan ma'lumotlar maxfiy bo'lib, faqat statistika organlari tomonidan yig'ma holda ishlatiladi va fuqarolarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Abdulfazil MAMATOV,
Yangiyo'lt tumani statistika bo'limi boshlig'i

YOSHLAR VOZI

MUASSIS:
O'ZBEKISTON
YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI


BOSH MUHARRIR:
Hamza
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda
№ 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KITOB:
Yelena KALININA
NAVBAATCHI MUHARRIR:
Iqbol PARDAYEVA
MUSAHHIHAR:
Shahribonu RAHMATOVA
Qirimzoy HAKIMOVA

Gazeta materiallari tahririyat
kompyuter markazida terildi va
sahifalandi.

TAHRIRIYAT MANZILI:
100083, Toshkent, Matbuotchilar
ko'chasi, 32.
Telefonlar:
(71) 233-22-16
(71) 236-79-95.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi - 3 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indeks: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narda.
Buyurtma G-255
Adadi - 760
Bosishga topshirish vaqti - 21.00
Topshirildi - 20.00